

ZULFIYA MO‘MINOVA IJODIDA MILLIY RUHNING POETIK IFODASI

Arziqulova Sayohat,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti,
[Tel:970062017,](tel:970062017)
[e-mail: sayokhat.arzikulova@bk.ru](mailto:sayokhat.arzikulova@bk.ru)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoira Zulfiya Mo‘minova ijodiga doir she‘rlar tahlilga tortilgan. Unda shoiraning she‘rlari misolida milliy ruhning poetik ifodasi atroflicha o‘rganilgan. Shoiraning milliy ruhiyat, milliy qadriyatlar xususida yaratilgan ijod namunalari tahlilga tortilgan va ularda milliy ruhning poetik ifodasi qanday namoyon bo‘lishiga ko‘ra tasniflangan. Maqolani yozishda shoiraning “Ayolga gul bering”, “Itiqlol oltin gulim”, “Beshiklarni asragin dunyo” kabi she‘riy kitoblari asos sifatida olindi.*

***Kalit so‘zlar:** she‘riyat milliy ruhiyat, badiiy obraz, timsollar, milliy qadriyat.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются стихи о творчестве поэтессы Зульфийи Муминовой. В ней на примере стихов поэтессы всесторонне исследуется поэтическое выражение национального духа. Образцы творчества поэтессы, созданные на основе национального духа, национальных ценностей, были подвергнуты анализу и классифицированы в соответствии с тем, как в них проявляется поэтическое выражение национального духа. При написании статьи за основу были взяты такие поэтические сборники поэтессы, как “Дай женицине цвeток”, “Итиклoл Алтын Гулим”, “Дереги колыбельки мира”.*

***Ключевые слова:** поэзия национальная духовность, художественный образ, символы, национальная ценность.*

Mustaqillikni qo‘lga kiritgach millat va vatan manfaatini hamma narsadan muqaddas tutuldi. Ijodkorlar vatan, millat haqida baralla kuylay boshladi. Milliy ruhiyat ufurib turgan ijod namunalari ko‘paydi. Albatta, so‘nggi uch-to‘rt asr dunyo taqdirini o‘zgartirdi. Yangi asrda yashamoq uchun uch jihatni: 1) dunyoviy ilmlarni(xususan, chet tillarini) egallash; 2) milliy ruhni, o‘zlikni saqlab qolish; 3) E’tiqodda, din-diyonatda mustahkam turish lozim bo‘ldi.

Adabiyotshunos, olim N.Jabborov Erkin Vohidov ijodida milliy ruhiyat yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida shoir she‘riyatida milliy ruh 3ta poetik shaklda ifodalanganini kuzatadi: **badiiy obraz va timsollarda, milliy qadriyatlar talqinida, fikrning badiiy ifodasida.** Xuddi shu kabi biz ham shoira Z.Mo‘minova ijodini kuzatib, unda milliy ruhning poetik ifodasi 3 jihatda namoyon bo‘lishini tadqiq etdik:

1. Shoira ijodida milliy ruhning badiiy obrazlar tasvirida aks ettirilishi. Bunda mehnatkash xalq timsolida milliy ruhning eng oliy xususiyatlari tarannum etiladi; Ey

2. Milliy ruhni shoira qadriyat va an‘nalarda aks talqinida aks ettiradi; Shoiraning lirik mushohadasida milliy ruh ifodasi kuzatiladi;

3. Milliy ruh shoira fikrining badiiy ifodasida ham o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

1. She‘riyatning, umuman adabiyotning asosiy sharti bo‘lgan badiiy obraz yoki timsol chinakam milliy shaklda namoyon bo‘lsagina o‘quvchi qalbiga tezroq yetib boradi. Shundagina uning ta‘siri umrbod unutilmasligi mumkin.

Zulfiya Mo‘minova – shoira! U kuyib, kuyunib yozadi, yozganiga o‘xshab yashaydi, yashaganiga o‘xshab yozadi. Shoira she‘rlarida Vatanimizning tarixiy taqdiri, o‘tmishi, buguni, kelajagi yorqin misralarda tasvir etiladi. Shoiraning “O‘zbekiston” nomli she‘rida mana shunday go‘zal obraz va timsollar keltirilganligiga guvoh bo‘lamiz: Tongning eng oq qismi hatlab o‘tolmay, Suvching yaktagida saqlayotir jon.

Issiq quchog‘ingni tashlab ketolmay,
Olmalarning bo‘yi oftobda hayron [1:64]

Ushbu poetik topilmalarda ham hayotiy jarayonlar mujassam. Dalasini suvgaqondirish maqsadida “yaktagida jon saqlagan” – uxlagan o‘zbek dehqonining fidoyiligi ifodaetilgan, mehnatkash O‘zbek ulug‘lanadi. Shu bilan birga shoira milliy ruhiyatimizni o‘zida akslantirib turgan obrazlarni keltirganki, shunda voqelikni yurakdan his etasiz, tasvir ko‘z o‘ngingizda beixtiyor gavdalanadi. Masalan, yaktagidagi suvchi obrazi kamdan kam xalqlarda mavjud. Shoira haqiqatan tabiat shaydosi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, vatan sog‘inchi, vatan madhi kuylangan she‘rlarida tashbeh, tashxis, mubolag‘a san‘atlaridan ko‘p foydalangan. Bu she‘rni yanada chiroyli va ohangdor chiqishini ta‘minlagan. Ona vatanning “Issiq quchog‘i”ni nafaqat insonlar “olmalar” ham tashlab ketolmay hayron ekan. Onaning mehri bolasiga qanday beqiyos bo‘lsa, vatanninghamxuddi shu kabidir. Shu sababdan vatan onaga qiyos etiladi.

Tonglaring taniydi shodmon xo‘rozni,
Quyoshning parchasi tojida qo‘nar.
Erka kelinlaring shirin arazni
Tuguniga tugib dalaga jo‘nar.[1:52]

Bu misralarda ertatongdan dalasiga otlangan o‘zbek dehqonining ayolik o‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Parchada keltirilgan xo‘roz obrazi va o‘zbek kelinlari bekorga qiyoslanmayapti. Xo‘roz azonda, quyosh chiqmasdan turadi va barchani zo‘r kayfiyatila yorug‘ tongni qarshilash uchun uyg‘otadi. Xo‘roz aslida xalqimizda xayr-baraka timsoli hisoblanadi. Nega xo‘roz, asosan, tongdaqi chqiradi? Ulamolarning ta‘kidlashicha, xo‘roz subh paytida yerga tushgan farishtalarni ko‘rib qichqirarkan. Islom dinimizda bomdod namozidan keyin uxlashga shoshilmaslik kerakligi aytiladi,

sababi aynan shu damda farishtalar yer yuziga barokat ulashar ekanki, kim g‘aflat(uyqu)da bo‘lmasa, Allohning barokatiga ega bo‘larkan. Bizning o‘zbek kelinlari, qizlarini shoira shunday barokatlilar sohibasi ekanligini, ro‘zg‘orini tindirib, dalaga jo‘nab ketishini chiroyli tarzda tasvirlaydi. Parchada keltirilgan “tugun tugish” iborasi ham milliylikni anglatuvchi o‘zi xos detal sanaladi. Kelinlarga xos bir jihat: eridan arzlasa, tugun-taqasini yig‘ib onasinikiga ketib qoladi. Shoira ta’riflayotgan kelinlar arzlasa, onasinikiga emas, balki dalaga, mehnat orqali g‘am-qayg‘ularini unutish uchun ketadi. Tashqaridan qarasa, ular qiyinchilik, azobda yashayotgandek go‘yo.

Ammo ular bilan yaqindan tanishilsa, ulardagi samimiyat, soddalik shudala, mehnat orqali singigan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoiraning o‘zi mana shu hayotni qo‘msab yashashi, xayollarida ular bilan suhbat qurishi, tushlarida ularni ko‘rishi so‘zimizning isbotidir. Buni uning she’rlarida ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimizning “tugun tugish” iborasidan Erkin Vohidov ham milliy ruhni ifodalashda mohirona foydlangan. Bu she’rni adabiyotshunos N.Jabborov chuqur mulohazalar bilan tahlol qilgan: “Uchi tuguk dastro‘mol” – sarlavhaga olib chiqilgan bu poetik timsol o‘zbek xarakteri, o‘zbek ruhiyatini ta’sirchan va yorqin ifodalagani bilan alohida ajralib turadi. Muhimi, shoir bu kichik timsol vositasida yirik badiiy umumlashmalar chiqaradi. Uningcha, g‘unchalar – olamga sep yozgan bahorning bayramga yasanishni unutmaslik uchun ro‘molchasiga solgan tuguni. Inson miyasi – o‘n to‘rt milliard uchi tuguk dastro‘mol. Odamzod ko‘krigidagi betinch qalb bamisoli umr mohiyatini eslatib turuvchi ro‘molcha tuguni. Shoir chiqargan badiiy xulosa o‘quvchini inson hayotining asl mohiyati haqida chuqurroq mushohada yuritishga undaydi:

O‘yla, do‘stim, kelmay turib o‘sha dam,

Isrof qilma yosh yurakning kuchini.

Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan,

Tugib qo‘ygin ro‘molchaning uchini.[2:2]

Bular hammasi millat ruhi, o‘zi mansub ona xalqning yodi shoira Z.Mo‘minova bilan bir umr hamnafas, hamqadam bo‘lganini ko‘rsatadi. Umuman, shoira ijodida tarixga boy, mehnatkash, tabiati go‘zal Vatan – O‘zbekistonning betakror poetik timsoli yaratilgan.

2. She’riyatda milliy ruh ifodasining eng muhim shartlaridan yana biri milliy qadriyatlar va an’alar talqinidir. Shoira ijodida milliy qadriyatlarning lirik talqini o‘ziga xos tarzda ko‘rinadi. Z.Mo‘minova sherlarida ayolga bo‘lgan ehtirom, bolajon

xalqning tasviri, o‘zbek oilasi an‘analari, urf-odatlarini, xalqning sabr matonati, shukronalik fazilatlarini milliy qadriyat sifatida aks etishini ko‘rishimiz mumkin.

Shoiraning ijodida ayolni ulug‘laydigan, unga ehtirom ko‘rsatilgan bir qancha she‘rlar, esselarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Ayolga gul bering” she‘rida shunday misralarni ko‘ramiz:

Ayolni, Vatanni sevgan nasllar
Asrlar qa‘ridan etadi ogoh,
Ayolni aldamoq, onani sotmoq
Vatanni sotmoqdek eng og‘ir gunoh[3:7]

Keltirilgan misralar oddiylik, soddalik va samimiylilikning guvohi bo‘lamiz. Ayol kishini e‘zozlash bizning etiqodimizda juda ulug‘ fazilat sanaladi. Islom diniga qadar bo‘lgan Johiliy ayol kishiga bir buyum sifatida qaralgan yoki uni buyumdek ham qadri bo‘lmagan. Oilada qiz farzand tug‘ilsa, o‘sha oilning erkaklari uchun isnod sanalgan va yoshligidayoq undan voz kechilgan (tirilayin ko‘mib yuborigan). Islom dini kirib kelgandan so‘ng, barchasi o‘zgardi. Oilada qiz bola tug‘ilsa, dabdabani ko‘proq qilish lozimligi, bu uning Johiliya davriga qarshi ekanligini, qizi bor insonning jannatga kirishi, erkak kishining ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo‘lishi, uning oldidagi burchlari payg‘ambarimiz (s.a.v.)sunnatlari orqali bizga ma‘lum. Shoiraning “Qizlarimga” she‘rida onaning qizlariga bo‘lgan muhabbati ifoda etilgan:

Mening qo‘shaloq ko‘zmunchoqlarimsiz,
Chorasiz qolganda chiroqlarimsiz.
Tashnai zor o‘lub titrab turganda
Tumshuqda suv tutgan chorloqlarimsiz.[3:86]

Ona va qizaloqlar mehr-muhabbatini shoira “tumshuqda suv tutgan chorloqlar”ga o‘xshatishi juda chiroyli tasvirlangan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kimning uchta qizi bo‘lsa, ularning xarxashalari, og‘irliklari va yengilliklariga sabr qilsa, Alloh ularga ko‘rsatgan rahmati tufayli uni jannatga kiritur”, – dedilar. Bir kishi: “Ikkita bo‘lsa-chi, yo Rasulalloh?” – dedi. “Ikkita bo‘lsa ham”, – dedilar. Bir kishi: “Bitta bo‘lsa-chi, yo Rasulalloh?” – dedi. “Bitta bo‘lsa ham”, – dedilar”. Ahmad rivoyat qilgan. Shunday qilib, bittami, ikkitami yoki uchtami, qizni tug‘ish, ularni boqib, tarbiyalab, katta qilish ota-ona uchun jannatga haqdor bo‘lish omillaridan biriga aylantirildi. Musulmonlar qadimdan qizlarga faqat yaxshi nazar bilan qarab keldilar va kelmoqdalar.

Shoiraning ona yurt vasfiga bag‘ishlangan she‘rlari ham milliy ruh bilan sug‘orilgan. Adabiyotshunos olim N.Jabborov ta‘kidlaganidek, har bir “Ijodkor

shunday bir Vatan qurmoqni istaydiki, uning bayrog‘i – insof, tug‘i – sarhad, muhri – mehr bo‘lsin. U Vatanning ma’rifat ummonidagi yelkanlarini qiblayi iymon sari burmoq bo‘ladi. Z.Mo‘minova “Vatan deganda – jonni, jon deganda Vatan”ni anglaydi. Shoira she’riyatida Vatan poetik timsoli turfa rangda jilolanadi. Ayniqsa, shoiraning o‘z ona diyori, tug‘ulib o‘sgan makani Narpay haqidagi she’rlarida va esselarida O‘zbekiston diyori obrazini o‘zida mujassam etadi. “Ko‘zimdan shudringday oqadi Narpay” deya yozadi shoira “Narpayda kuz”deb nomlangan she’rida. Albatta, kishi yiroqda bo‘lsa ham hamisha tug‘ilib o‘sgan makonini qo‘msab yashaydi. Narpay haqida yozarkan shoira, “u yerda qo‘shning bolasini o‘zining bolasidek yaxshi ko‘rishadi. Tansiq bir taom tayyorlansa qo‘shniga chiqaradilar. “Qo‘shni taboq” degan gap bor bizda ya’ni qo‘shnilarga chiqib turadigan toboqlar. O‘z vaqtida qo‘shnilarning oshxona buyumlari ichida biz uchun uzatiladigan qo‘shni taboqlari bor. Busiz mumkin emas”. Shoira o‘z Narpayiga mana shunday oshiq shaxs. Bu ta’riflani o‘qir ekansiz o‘zbekning o‘lmas qadriyatlari millatning ruhida jo bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz.

3. Milliy ruh shoiraning lirik mushohadasida ham o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgani kuzatiladi. Shoiraning “Maysa” nomli she’ri bor yo‘g‘i to‘rt misrani tashkil etsada, katta ma’no mazmunga ifodalagan: U hech kimdan baland tutmadi o‘zin,

Chopmadi har yonga nenidir so‘rab.

Bir kuni kichik tomchi bezadi ko‘ksin,

Bag‘riga eng yuksak quyoshni o‘rab.[4:24]

Ushbu to‘rtlikda 2 xil poetik ma’no topishimiz mumkinki, avvalo, Alloh taolo insonga buyuriladigani bu – SABR. Ikkinchis esa, rizq Allohdan ekanligiga ISHONCH. Bundan tashqari kamtarlik, samimiylik, g‘urur kabi fazilatlar ham she’rda ifodalangan. Agar bu she’rda qaysidir shaxsning umryo‘lining xaritasi, yashash prinsipi bo‘lsa, u u ham bo‘lsa, bu – shoiraning o‘zi. Mana shunday kichik shaklga ulkan ma’noni ifodalagan shoira Z.Mo‘minova o‘zining ijodiy uslubi, so‘z qo‘llash mahorati bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minova Z. Beshiklarni asragin, dunyo. (Ilk she’riy to‘plami) .: Шеърлар. – T.: «G‘.G‘ulom», 1988.– 64 б.
2. Jabborov N. Milliy ruh – buyuk mezon. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/milliy-ruh-buyuk-mezon/>
3. Мўминва 3. Аёлга гул беринг. – Тошкент:Академнашр,2017. – 130-б
4. Мўминова 3. Истиқлол – олтингулим.: Шеърлар. – T.: «Ёзувчи», 1998.–64 б.